

REZYUME. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirishda M.Montessori usullaridan foydalanish, Monessori maktablarida bolalarga doistona yondoshuv tamoyillari va sinflari haqida asosiy tushunchalar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются основные положения использования методики М. Монтессори в развитии творческих способностей у детей дошкольного возраста, принципы доброжелательного к ребенку подхода в Монтессори-школах и классах.

SUMMARY. The article examines the main provisions of using M. Montessori's methodology in developing creative abilities in preschool children, the principles of a child-friendly approach in Montessori schools and classes.

BUGUNGI KUNDA OILADA BOLALARGA KITOBXONLIK VA O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING BAZI MASALALARI

Z.U.Ilyasova – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: oila, oilada kitobxonlik madaniyati, globallashuv davrida kitobning tutgan o'rni, badiiy adabiyotning kitobxonlikga tasiri.

Ключевые слова: семья, культура чтения в семье, роль книги в эпоху глобализации, влияние художественной литературы на читаемость

Key words: family, reading culture in the family, the role of books in the era of globalization, the impact of fiction literature on reading habits

Kirish. Bugungi globallashuv davrida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi ta'lim, tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Kitob – inson tafakkurining yuksak mahsuli bo'lib, u orqali bolalarda bilim olishga ishtiyoq, axloqiy fazilatlar, milliy g'urur, ma'naviy boylik singari qadriyatlar shakllanadi. Aynan oilada kitobga bo'lgan mehr va e'tibor asosida bolaning ma'naviy olami, intellektual salohiyati shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida bolalar tarbiyasiga, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: *“Yoshlarni kitob bilan do'st qilish – bu ularni nur bilan, bilim bilan, ma'rifat bilan do'st qilish demakdir”* [1]. Bu fikr davlat darajasida kitobxonlik masalasiga strategik e'tibor qaratilayotganini anglatadi.

Pedagogik yondashuvda kitobxonlik bolalarda tafakkur, nutq, tasavvur, tasviriy fikrlash va axloqiy qarashlarni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Jumladan, A.Avloniyning *“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”* degan fikri ham aynan ma'naviy tarbiyada, shu jumladan kitob orqali tarbiyaning o'rniga urg'u beradi [2].

Psixologik qarashlarga ko'ra, bolalik davrida bola hayotiy tajribalarga ega bo'lmaydi, biroq u kitob orqali turli obrazlar bilan tanishadi, hayotiy vaziyatlarni tushunishga urinadi. Bu uning hissiy-irodaviy va axloqiy rivojida muhim rol o'ynaydi.

Sotsiologik nuqtai nazardan, oila ijtimoiy institut sifatida bola shaxsini shakllantiruvchi eng yaqin muhitdir. Aynan oila bolani kitob bilan tanishtiradi, unda kitobxonlik madaniyatining dastlabki tamoyillarini singdiradi. Zamonaviy oila modelida bu jarayon texnologik qurilmalar bilan raqobatga kirgan bo'lsa-da, kitob o'z tarbiyaviy kuchini yo'qotgan emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z oilasida kitob o'qiladigan, ona yoki ota farzandiga ertak o'qib beradigan muhitda ulg'aygan bola keyinchalik kitobxonlikni hayotining ajralmas qismiga aylantiradi [3].

Muhokama. Kitobxonlik va o'qish madaniyati muammosi har bir davrda dolzarb bo'lib kelgan bo'lsa-da,

XXI asrning raqamli muhitida bu masala yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oiladagi ma'naviy muhit va ayniqsa kitobga bo'lgan munosabat alohida o'rin tutadi. Shu jihatdan pedagogik, psixologik va sotsiologik qarashlarda bolalar kitobxonligini shakllantirish tamoyillari chuqur o'rganilgan.

Shunday qilib, oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish o'zining chuqur nazariy asoslariga ega bo'lib, u pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarning uzviy uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Kitob - bu bilim va ma'naviyat va madaniyat xazinasi, inson hayotiga mazmun bag'ishlaydigan, har qanday holatda ham inson bilan birga bo'ladigan sodiq do'stdir. Kitob o'qigan insonning fikrlashi kundan-kun ortib boradi. Bugungi globallashuv davrida axborot oqimi keskin ortib borayotgan sharoitda bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, intellektual rivoji va dunyoqarashi shakllanishida kitob o'qish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Afsuski, ko'plab oilalarda bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishi sust, kitob o'qish, kitobga bo'lgan mehr shakllanmagan. Kitob insonning psixik kamolotini ta'minlashda kitobdek kuchli qudratga ega narsa yo'q. Shu sababli azal-azaldan ilm yulduzlari, donishmandlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ta'limning va odobning sirlarini o'rganishga chorlab kelgan. Bilamizki inson tug'ilgandan boshlab tarbiyani oilada olishni boshlaganidek, kitobxonlik madaniyatini oilada shakllantra boshlaydi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oilaning o'rni benihoya kattadir. Xalqimizda *“Qush uyasida ko'rganini qiladi”* degan maqoli buni yanada dolzarb bosqichga ko'tardi.

Tarbiya dastlab oilada boshlangani kabi kitobxonlik madaniyatini ham oiladan boshlanadi. Jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lmish oilada olingan tarbiya insonning axloqiy, ma'naviy hamda ruhiy qiyofasini shakllantiradi. Shundan kelib chiqqan holda oila bu birinchi maktab desak adashmagan bo'lamiz. Bolalarning qiziqishlari, qadriyatlari, so'z boyligi va tafakkur darajasi ko'p jihatdan oila muhiti bilan chambarchas bog'liq. Agar ota-ona o'zlari kitob o'qisa, bolalarda ham shu odat tabiiy tarzda shakllanadi. Chunki bolalar kattalarning xatti-harakatlarini takrorlaydi.

Shuning uchun oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish nafaqat bola balki, butun jamiyat uchun foydali sarmoya bo'ladi. Haqiqatdan ham oilaga tegishli muhit, oilaga tegishli qadriyatlar ham asosiy vosita sifatida qaraladi. Ota-onaning ma'naviy darajasi, axloqiy qarashlari va boshqa xislatlari bevosita farzandlariga o'tadi. Bu hislatlar farzandlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu tufayli kitobxonlik badiiy adabiyotga muhabbat ham insonning ma'naviy taffakurini, tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan ahamiyatli xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Kitobni sevgan inson, kitobga mehr qo'yan inson, badiiy adabiyot olamiga hamnafas inson o'zidagi bu tuyg'ularni va fazilatlarni yaqin atrofdagilarga ayniqsa oilaga singdirish imkoniyati yuqori. Agar ota-ona tarbiyasi va badiiy adabiyotga qiziqishi baland bo'lsa bolaga o'zgacha mehr ko'rsatadi. Bu esa kitob va badiiy adabiyotga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Atrofdagi oilalarga nazar tashlasak qaysi oilada kitobga badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarni qay tarzda bo'lganligini ko'ramiz. Kimdur dunyoviy xodisalar bilan hamnafas bo'lsa, yana kimdur badiiy adabiyot va kitobga ko'proq vaqt ajratadi. Ba'zilar esa haftada bir kitob o'qishni odat qilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar ta'sirida katta bo'layotgan ko'pchilik bolalar ko'proq telefon, planshet yoki televizorga ko'proq qiziqyapti. Bunday sharoitda kitob o'qish va badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishni uyg'otish murakkab. Lekin bu imkonsiz jarayon emas. Muhimi ota-onaning sabrli va tizimli yondoshuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiy misol bolalarga yotishdan oldin ertak o'qib berishi orqali ham kitobxonlikga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi mumkin. Yoki yana bir usuli: bolaning kichik yutuqlari uchun kitob berish orqali ham qiziqish uyg'otish mumkin. Har bir xonadonda kitob burchagini yaratish kitobga bo'lgan qiziqish va mehr uyg'otadi. Kitobxonlikni oilaga aloqador zaruriy qadriyatga aylantirish bu insonlar bugun farzandlarining ham kitob deb ataluvchi buyuk va bebaho xazinasidan foydalanuvchi bo'lib, ma'naviy komillikka yetishini hohlaydi. Buning uchun ota-ona o'z vaqt va imkoniyatiga qarab chuqur mazmunli, badiiy- nafosati yuksak bo'lgan har xil badiiy adabiyotga oid janrdagi, jahon va milliy adabiyotimizning durdonalarini tanlab sotib oladi. Bu ijodiyotni farzandlarining yosh va qiziqishlari, aqliy salohiyati, o'zlashtirish qobiliyatini e'tiborga olgan holatda taqsimlab beradi. Bunga ota-ona uzviy aloqada bo'ladi.

Ota-onaning bolasiga qattiq intizomda bo'lishi ham talab qilinadi va jiddiy yondashgan holda har kuni o'qish lozim bo'lgan bet miqdorini belgilab beradi. Qo'shiq ijodiyotiga alohida qiziqish bildirib, har bir farzandiga qo'shiqlarni yod olib borishni tayyor qilib turadi. Deyarli, har kuni kechqurun qaytib, ovqatlanishdan keyin, farzandlarini birma- bir chaqirib, bir pedagogdek topshirgan vazifaning bajarilishini nazorat qiladi. Ya'ni,

farzandlari o'zlari yod olgan qo'shiqlarni aytib beradi; o'qitayotgan ijodiyotida belgilangan varaqlar va uning mazmunini gapiradi; qahramonlar faoliyati, xarakter hususiyatiga munosabatini bildiradi. Bu jarayonda farzandlarining o'zlashtirish ko'rsatkichi, vazifaga ma'suliyat bilan yondashuv darajasi, kitobxonlik madaniyati ham oydinlashib, alohida yondoshuvga turtki bo'ladi. Yana bir ahamiyatli tomoni shunda farzandlari o'ziga tegishli asarni o'qib bo'lib, kitoblarni almashtiradi. Biri- ikkinchisining kitobini ham o'qib o'zlashtirib boradi. Shuningdek, oila doirasida ham kitob o'qib berishi yo'lga qo'yilgan. Onaning uy ishlari ko'p bo'lganligi sababli ko'pincha dam olish kunlari otasi farzandlarini atrofiga to'plab, tarbiyaviy ahamiyati mazmun aks ettiradi. Bu kitobni sevuvchi oilada kitobxonlik bo'yicha ota barchaga namuna bo'lishga loyiqdir.

Natijalar. Ijtimoiy yondashuvda oila ijtimoiy institut sifatida bola shaxsini shakllantirishda bevosita ishtirok etuvchi asosiy omil sifatida ko'riladi. Oila – bu bolani birinchi marta kitob bilan tanishtiradigan, unda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradigan muhitdir. Farzand ota-onaning kitobga munosabatini kuzatib, o'zida o'qishga nisbatan qadriyatni shakllantiradi. Ayni shu jarayonda modellik tarbiya printsiipi ishga tushadi. Zamonaviy oila pedagogikasida kitobxonlikni shakllantirish jarayoni quyidagi nazariy tamoyillarga tayanadi:

- bosqichma- bosqich rivojlantirish tamoyili – bola yoshiga va rivojlanish darajasiga mos kitoblar tanlash va ularni izchil ravishda o'qitish;

- qiziqishga tayangan holda o'rgatish tamoyili – bolaning individual didi va qiziqishini hisobga olib kitob tanlash;

- hamkorlikda o'qish – ota-ona va bola birgalikda kitob o'qib, muloqot orqali fikr almashishi.

Shuningdek, bolalarda o'qish madaniyatini shakllantirishda ertaklar, she'rlar, xalq og'zaki ijodi namunalarining o'rni beqiyosdir. Bu orqali bolalarda badiiy nutq, ifodali o'qish, his qilish, mantiqiy izchillikni anglash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, o'qish madaniyati amalga oshirilmoqda, pand- nasixatlar olib borilmoqda. Shunda ham oilaga oid muhitda kitobxonlik madaniyati qoniqarli darajada emas. Yuqoridagi singari kitobsevar oilalar bilan bir qatorda, ularning teskarisi bo'lgan oilada tegishli muhitni ham uchratimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda oilada bolalarga kitobxonlik va o'qish madaniyatini shakllantirish – vaqt va sabr talab etadigan jarayon. Ammo bu mehnatning mevasi – farzandingizning bilimli, tafakkurli va ma'naviy boy shaxs bo'lib voyaga yetishidir. Kitob – bola tafakkurining charxi, qalbining oziqidir. Ma'naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila ahamiyatli va mustahkam asos ekanligini namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: «O'zbekiston», 2022.
2. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: «O'qituvchi» 1992.
3. Karimova M. Oila va bolalar kitobxonligi. / «Ma'rifat», 2023-yil, №4.
4. Madraximova Sh. Kutubxonalikda o'rnak zarur. / «Ma'rifat», 2013-yil, 16-yanvar, №5(8550).
5. Mamatraymov X. Kitob sovg'a qilganmisiz? / «Ma'rifat», 2013-yil, 6-fevral, №11(8556)

REZYUME. Maqolada bolalarda kitobxonlik va o'qish madaniyatini shakllantirishda oilaning tutgan o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Tadqiqotda o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, oilaviy muhit, badiiy adabiyotlarning ta'siri nazariy hamda amaliy asosda yoritilgan. Kitobxonlik madaniyatini erta yoshdan boshlab rivojlantirishning metodologik va psixologik jihatlarini asoslab berilgan. Shuningdek, oilaviy kitobxonlikni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается роль и значение семьи в формировании культуры чтения и интереса к книгам у детей. В исследовании раскрываются теоретические и практические аспекты влияния семейной среды, личного примера родителей и художественной литературы на развитие читательской активности. Обоснованы методологические и психологические подходы к формированию читательской культуры с раннего возраста. Также представлены рекомендации по развитию семейного чтения.

SUMMARY. This article explores the role and importance of the family in shaping reading culture and book interest among children. The study examines both theoretical and practical aspects of how parental modeling, the family environment, and literary works influence children's reading habits. It outlines methodological and psychological approaches to developing reading culture from an early age. The article also provides practical recommendations for encouraging family-based reading practices.

ATA-ANANI QADIRLEW – MILLIY QADIRIYAT

A.K.Pazilov – *pedagogika ilimlerini kandidati, professor*

Ўziniyaz atindagi Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Tayanch so'zlar: ota-ona, bola, qadr qimmat, qadriyat, milliy qadriyat, nevvara, chevvara, tarbiya, qadriga etmaslik.

Ключевые слова: родители, ребёнок, достоинство, ценность, национальная ценность, внук, правнук, воспитание, недоценка.

Key words: parents, child, dignity, value, national value, grandchild, great-grandchild, upbringing, lack of appreciation.

Kirisiw. Ata-anani qadirlew, qartaygan waqtında olardıń awırın jeńillestiriw Shıǵıs xalıqlarına tán bolǵan ázeliy qadiriýatlardan esaplanadı. Sonlıqtan da, «ata-anani húrmet etiw, olarǵa járdemshi hám tayanış bolıw, qartayǵan shaǵında olardıń súyenishi bolıw, ruwxıy hám materiallıq jaqtan qollap-quwatlaw, ata-ananıń alǵısın alıw, shańaraqtıń dástúrlerin dawam ettiriw balanıń minneti sanaladı» [3:368].

Hár bir ata-ana óz perzentiniń dúnyaǵa keliwi menen oǵada úlken quwanışqa bólenedi. Oǵan «jurtta joq» atları tańlap qoyıwǵa háreket etedi. Baǵadı, tárbiyası menen shuǵıllanadı, oqıp bilim alıwına, deni saw, hár tárepleme rawajlanǵan shaxs bolıp jetilisiwine ǵamxorlıq jasaydı.

Ata-analar tek bunıń menen sheklenip qalmaydı. Ulların úylendiredi, qızların turmısqa shıǵaradı, olardıń toyların beredi, imkaniyatı bolǵanshelli hár balasına óz aldına jay alıp berip, «basqa shıǵaradı». Endi aqlıq baǵıw, jetkerse shawlıq baǵıw degen qosımsha jumislardı da isley beredi. Sol aqlıq-shawlıqlarınıń deni saw, tárbiyalı, bilimlı bolıp ósiwlerine de ǵamqorlıq jasaydı. Anıǵıraq etip aytqanda, hár bir ata-ana aqlıqlı bolǵannan keyin balası menen kelininiń otı menen kirip, suwı menen shıǵıp jasay baslaǵanın ózleride sezbey qaladı. Álbette, bul jumislardıń barlıǵı da hár bir ata-anadan tınımsız miynet, uyqsız tınlerdi, aqlıq-shawlıqları quwansa quwanıp, qapalansa qapalanıp, awırsa qudaydan balaǵa bergen dártti ózine beriwın tilep jasawdı talap etedi.

Balalar da óz ata-anaların janınday jaqsı kóredi. Olarǵa ǵamqorlıq jasaydı. Sebebi, milliy qadiriýatlarımızǵa muwapıq ata-anani húrmetlew hár bir jas áwladtıń ádiwli minneti sanaladı.

Turmista qońsı - qobalarımızǵa, aǵayın-tuwǵanlarımızǵa itibar berip qaraǵanıńızda da ata-analardıń óz perzentlerinen razı ekenlikleri sezilip turadı. Ata-analardıń hesh biri óz perzentlerinen narazı bolǵanlıqların sırtqa shıǵarmaydı, kerisinshe, olardıń barlıǵın «ishine jutadı». Nátiyjede, waqtıń ótiwi menen olardıń ayırımlarınıń nervi

sharshaydı, awırıwǵa shatıladı, kún kórisi qıyınlasa baslaydı. Sońǵılıǵında qudaydan «Tezirek mennen amanatıńdı ala ǵoy» dep kún sayın tilek tilewge ótedi.

Degen menen olar qanshelli ishine óz dártlerin juta bersin, báribir sırttan qaraǵan kózlerge olardıń bir nársege kewli tolmay júrgenligi ap-anıq bilinip turadı. Biz bul mäseleni hár tárepleme úyreniw maqsetinde 18 xojalıqtı 10 jıldan artıq **óz baqlawımızǵa alıp** kórdik. Baqlaw jumısımızǵa 12 ata-ana, 3 kempiri qaytıw bolǵan ata hám 5 ǵarrısı qaytıw bolǵan ana qatnastı. Nátiyjelerdi salıstırıp kórgenimizde olardıń kópshiliginde ózine jarasa mashqalalardıń bar ekenligi, ayırımlarınıń dártlerin kimge aytarın bilmey qıynalıp júrgenlikleri anıqlandı.

Biz baqlaw hám sawbetlesiwimiz nátiyjesinde alınǵan materiallarımızdı studentler menen alıp barılauǵın lekciya, ámeliy hám seminar jumisları procesinde paydalanıp, olardan mashqalalı jaǵdaylardı jaratıp talqılawǵa salıp kórgenimizde studentlerdiń pikirleriniń unamlı ekenligi de anıqlandı. Sonlıqtan, usı mashqalalı jaǵdaylardan bir misal keltirip ótiwdide maqul dep esapladıq.

1-mashqalalı jaǵday. Birge islesetuǵın Ábdibek ismli dostımızdıń birneshshe ay izlep júrip tapqan jayı balasına maqul tuskennen keyin Saranchadan jay alıp, qońsı-qoba, aǵayın-tuwǵanların shaqırıp shashıw berdi. Bir hápteden soń jaydıń balasınıń atına ótkenligi haqqındaǵı hújjetin hám bir ilaqlı eshki alıp, padaǵa qosıp qoyarsañ, demde kóbeyedi hám ilaqları aqlıqlarına ermek boladı dep aparıp bergenin aytıp quwanıp keldi. Burın balası-kelini qolında bolǵandiki me jáne bir hápteden keyin, «balalardan xabar alıp qaytayıq dep edim, qıylanbasañ aparıp qaytasañ ba» dep ótinish etti. Dostımızdıń kewlin jıqpayın dep alıp bardım. Baraman degenshe balasınıń jayınıń átirapınıń keńligin, quda qálese bir zal, garaj, asxana túsirip beriw oyınıń bar ekenliginde aytıp bardı. Biraq... Úyge jetken waqtımızda hesh birimiz sóyley almay qaldıq. Sebebi, jaydıń kóshe betki jaǵında, úlken etip «Jay satıladı» dep jazıp qoyılǵan edi.